
“Uzbek Import Fair 2025” – Import o‘rnini bosish va mahalliylashtirish sari qadam

// 08.10.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzbek-import-fair-2025-import-o-rnini-bosish-va-mahalliylash



Avval xabar berganimizdek, Toshkent shahridagi “O‘zekspomarkaz”da Bojxona qo‘mitasi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamkorligida mamlakatimizda ilk bor tashkil etilgan “Uzbek Import Fair 2025” I-xalqaro ko‘rgazmasi o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Ko‘rgazma “Mahalliy kontentni oshirishda importni optimallashtirish” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda jahonning turli mamlakatlaridan qator kompaniyalar vakillari ham ishtirok etmoqda.



“O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalari ham o‘z axborot stendlari bilan ko‘rgazmada faol ishtirok etmoqda. Ular tomonidan kimyo sanoati mahsulotlari, parfyumeriya, kosmetika va shaxsiy gigiyena vositalari namoyish etilmoqda. Shuningdek, mahalliylashtirish dasturi hamda sanoat kooperatsiyasi doirasida importni qisqartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan loyihalar va 15,6 mln dollarlik import qilinayotgan kimyoviy mahsulotlar namunasi taqdim etilgan.



Ko‘rgazma doirasida tashkil etilayotgan panel sessiyalarda esa sanoatning ko‘plab sohasida mahalliy kontentni rivojlantirish bo‘yicha samarali yechimlar tahlil qilinmoqda.

Bu o‘z navbatida mahalliy tadbirkorlar uchun ichki bozordagi real ehtiyoj hajmini o‘rganish, import o‘rnini bosish va o‘z biznesini kengaytirishda muhim maydonga aylanmoqda.





“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati